

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rmi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Mavluda ACHILOVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

SHAXSNING JISMONIY, PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIKANING ROLI

Annotatsiya

Maqolada shaxsning rivojlanishi, unga ta’sir etuvchi omillar haqida so’z boradi. Jumladan, shaxsni har tomonlama murakkab bo’lib o’sishida tashqi muhit, ichki omillar ya’ni irsiyat kabi ta’sirlarning barchasi murkkab shaxs bo’lib yetishiga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar. Indivud, individium, rivojlanish, mudroq, muhit, omil.

В статье рассказывается о развитии личности, факторах, которые на него влияют. В частности, в развитии человека как комплекса во всех отношениях все воздействия, такие как внешняя среда, внутренние факторы, то есть наследственность, служат тому, чтобы сделать его сложной личностью.

Ключевые слова. Индивид, индивидуум, развитие, сонный, кружающая среда.

The article tells about the development of personality, the factors that influence it. In particular, in the development of a person as a complex in all respects, all influences, such as the external environment, internal factors, that is, heredity, serve to make him a complex person.

Key words. Individual, individual, development, sleepy, environment.

Buguni kunda yoshlarni voyaga yetkazish, ularga ta’lim-tarbiya berish orqali ularni hayotga tayyorlab boramiz. Hayotning jadal rivojlanishi insonni shu hayotga mos bo’lgan bilim, malaka va ko’nikmalarni egallashi lozim bo’lgan, hayotiy tajribalar yordamida murakkab vaziyatlardan chiqib ketish ko’nikma.

Dunyoga kelgan go’dak ma’lum yoshga qadar individ hisoblanadi. “Individ” lotincha “individium” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “bo’linmas”, “alohida”, “yagona” ma’nolarini anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir.

Shaxsning shakllanishida harakat o’ziga xos omil sanaladi. Go’dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni qiladi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik shartli reflekslar bo’lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo’zgatuvchilarga javob tarzida yuz beradi.

Shaxs nomini olish uchun nimalar kerak?– degan savolning tuyilishi tabiiydir. Odam ijtimoiy mavjudot sifatidan shaxsga aylanishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari muhit va tarbiya kerak bo’ladi. Ana shular hamda shaxsning nasliy xususiyatlarining takomillashib borishi odamning rivojlanishi, shaxs sifatida namoyon bo’lishini ta’minlaydi.

Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishini, uning har tomonlama kamolga yetishi uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, unga ta’sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak. Shuningdek, bola shaxsining rivojlanishida faoliyatining o’rni va ahamiyatini ham o’rganishi lozim.

Biz yuqorida “rivojlanish” tushunchasini juda ko’p ishlatdik. Endi ushbu tushunchaga

atroflicha yondashib, ta'rif berishga harakat qilaylik. Odam biologik mavjudot sanaladi. U tabiiy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarga bevosita bo'ysunadi.

Boshqacha qilib aytganda, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysunadi. Bulardan tashqari odamning kamol inson bo'lib yetishuvida aniq maqsad asosida tashkil etilgan xatti-harakat, iroda sifatlarining kamol topishi asosida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonchi ham muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, hayoti davomida inson jismoniy va psixik jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi.

Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida, bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi kadrlarning yangi avlodi tafakkurini, ongini shakllantirishga xizmat qiladigan zarur bir soha sifatida namoyon bo'layotgan ekan, shaxs ta'rifi ham birmuncha oydinlashadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismiga kirgan "shaxs" quyidagicha ta'riflanadi:

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

Demak, shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lib, ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda o'z o'rnini bor.

Shaxsning rivojlanishi esa barcha tug'ma va hosil qilingan xususiyatlar: organizmning anatomik tuzilishi, fiziologik va psixologik xususiyatlar, faoliyat va xatti-harakatning miqdoriy va sifati o'zgarish jarayonidir.

Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib, o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushinamiz. Pedagogika va psixologiya fani rivojlanishni biologik va sotsial xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi.

Irsiyat – bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklarning naslga (bolaga) o'tish jarayonidir.

Nasldan-naslga o'tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

Anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko'zlarning rangi. Shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal holatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlar ham nasldan-naslga o'tadi. Iste'dod alomatlar umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat va ijod turiga yo'naltirilgan emas. Iste'dod alomatlar muayyan faoliyatga moyillikni aks ettiradi xolos.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga yoki ijobiy, yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq.

Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqelik, hodisalar majmui tushuniladi. "Muhit" tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikro muhit (oil) xususiyatlarini ifoda etadi.

Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayo-

niga ta'siri roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy voqeya va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ta'kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi, deya ta'kidlaydi.

Oila muhiti – mikro muhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois, mustaqillikka erishilgandan so'ng o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan “Oila” ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta'siri ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu ta'sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bola shaxsning rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatda bo'ladi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, tafakkur qilish darajasi yuksaladi, xarakter sifatleri takomillashib, kamol topadi.

Shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta, bolani o'rab olgan muhit ta'sirida rivojlantiradi. Shaxsning hayoti faoliyati davomida muhit unga yo'ijobiy, yo' salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ta'sir rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'k, qilishi mumkin.

Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyo'otadi, iste'dod qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

Qobiliyat va iste'dodning ro'yobga chiqishida insonning muayyan faoliyatga qiziqishi bilan bir qatorda uning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'dodli kishilar-iqtidor kuchini to'la ro'yobga chiqarishi uchun o'z ustilarida tinmay ishlashlari, mehnat qilishlari shart. Masalan, mashhur grek notig'i Demosfenning (eramizdan oldin. IV asr) omma orasidagi dastlabki nutqlari muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Demosfen duduq, ovozi xasta, qisqa-qisqa nafas oladigan kishi edi. U doimo bir yelkasini o'g'irib turar edi. Demosfen o'z kamchiliklarini tuzatish uchun o'zi ustida tinimsiz ishladi: u oo'ziga mayda toshlar va sopol parchalarini solib, so'zlarni talaffuz qilishni o'rgandi, dengiz bo'yida to'lqinlar shovqinida nutq so'zladi, qoyalarga chiqib baland ovoz bilan she'rlar o'qidi, oyna oldida turib yuz harakatlarini bir maromga keltirdi. Uy shiftiga qilichni osib qo'ydi, u odati bo'yicha yelkasini har o'g'irganda, qilich yelkasiga sanchilar edi. Demosfen haftalab uydan chiqmasdan notiqlikni o'rganishi uchun sochini yarmini qirdirib tashladi. Oxir-oqibat o'zi ko'zlagan maqsadga yetib shuhrat qozonadi.

Baxtga qarshi, o'qituvchilar orasida bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi omillar va ularning ahamiyatini bilmaydigan no'noq o'qituvchilar ham uchrab turadi. Masalan: Ayrim o'kituvchilar ulgurmovchi, o'kishdan orqada qoluvchi o'kuvchilardan qutulish yo'llarini ahtaradilar. Ularni yo sinfda koldirish yoki boshqa maktabga o'tkazish yo'llarini qidiradilar va bunga erishadilar ham. Bu kabi choralarni qo'llash bilan biz o'quvchilar tarbiyasini tashkil etishda ko'zlagan maqsadga erisha olmaymiz.

Fanlardan o'zlashtira olmagan o'quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi har bir o'quvchining yoshini va psixologik xususiyatini chuqur o'rganishi, uning qiziqishi va istaklarini aniqlashi, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni qo'llashi lozimdir. Umuman, pedagogik jihatdan to'ori uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichida bir xil bo'lmay,

balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. tarbiya jarayonida o'sayotgan avlodning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning har birini o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. yosh xususiyatlarni hisobga olish, bola xususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrida bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish demakdir. Shundagina shaxs rivojlanishiga tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi.

Yosh davrlari shartli ravishda guruhlanadi.Unda muayyan yosh davrining boshqasidan ajratadigan chegara yo'q. Yosh davrlarining guruhlanishi bolaning rivojlanish xususiyatlari-dagi o'zgarishlarga qarab ajratiladi.Quyida yosh davrlariga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.

Go'daklik davri. Yangi tug'ilgan bolada barcha sezgi turlari mavjud bo'ladi. Ushbu sezgilar murakkab bo'lmay, oddiy holatdadir. Chaqaloq bir holat faol bo'lib, bu faollik avvalo, qo'l-oyoqlarning refleks yo'li bilan harakatlanib turishida ko'rinadi. Xuddi shunday reflektor harakatchanlik bolaning chinqiriqlarida ham namoyon bo'ladi. Bolada vujudga keladigan shartli reflekslar 5-6 haftalarda yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, u onasining ovozini taniydi, uni eshitsa tinchlanadi.Begona odamlarni "yoqtirmay" bezovtalanadi.

Go'daklik davrida bola birmuncha tajriba to'plashi bilan uning idrok va tasavvurlari tarkib topa boshlaydi. Odatda, besh-olti oylik bola o'tiradigan bo'ladi, so'ngra emaklab, tik yurishga harakat qila boshlaydi, bir-ikki yoshda qadam qo'yib yura boshlaydi.

Bola yarim yoshdan oshgach, "g'o'ldirab" so'zlaydi hamda atrofdagilarning gaplarini tushuna boshlaydi va unda asta-sekin passiv nutq o'sadi, ikki yoshga qadam qo'ygach, faol nutqni o'zlashtirib, gapira boshlaydi. Nutq va tafakkurning o'sishi bilan bolaning atrofdagi kishilar bilan munosabati murakkablashib, o'ziga xos mazmunga ega bo'la boshlaydi. Ushbu holat bola ruhiyatining o'sishiga yordam beradi. Yasli davriga qadar bola aniq gapiradigan va o'zi mustaqil yura oladigan bo'ladi. Shuningdek, bolaning harakatchanligi, tafakkur va nutqi zo'r berib taraqqiy etadi. Bu davrdagi bola tafakkuri "predmet tafakkuri" bo'lib, u o'zi idrok qilgan, ko'rgan narsalar haqida fikr yuritadi. Uning tafakkuri predmetlar munosabatida ko'rinadi.

So'z yuritilayotgan davrda bolaning hissiy kechinmalari yuzaga kela boshlaydi. Dastlab ta'm bilish hamda teri sezgilari orqali qabullarga nisbatan organik hislar namoyon bo'ladi. Keyinchalik ehtiyoj, erkalanish va yaqinlariga mehribonlik sezgilari, o'zablanish, qo'rqish hamda zavqlanish kabi sezgilar namoyon bo'la boshlaydi.

Maktabgacha tarbiya davri. Ushbu yoshdagi bolaning emotsionalligi (hissiy beriluvchanligi) uning faolligida, harakatchanligida ko'rinadi. Bu yosh davrida bolalar hayotida o'yin o'ziga xos o'rin tutadi, o'yinlar asosan katta yoshdagi kishilar yoki bolalarning harakatlariga nisbatan taqliddan iborat bo'ladi. Bola o'yinning mazmunidan ko'ra o'ynalayotgan buyumlar (o'yinchoq va qo'g'irchoqlar) hamda o'zining harakatlari ko'prok, zavqlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq.–T., 1996.*
2. *Munavvarov A.K. Pedagogika. –T., 1996.*
3. *Munavvarov A.K. Pedagogika. –T., 1996.*
4. *Nishonaliyeva U., Tursunov I. Pedagogika kursi. –T., 1996.*